

3. Arner, D. W., Barberis, J., & Buckley, R. P. (2020). FinTech, RegTech, and the Reconceptualization of Financial Regulation. *Northwestern Journal of International Law & Business*, 40(3), 301-324.

4. Chen, Y., & Chen, C. (2021). Artificial Intelligence and Its Impact on Financial Technologies: Emerging Trends and Applications. *Journal of Financial Technology*, 2(1), 57-72.

UY XO'JALIKLARI DAROMADLARINING JAMIYATDAGI IJTIMOIIY MAQOMINI BELGILASHNING MOLIIYAVIIY ASOSI SIFATIDA

Xojiyev Jaxongir Dushabayevich

*TDIU Moliya va moliyaviy
texnologiyalar kafedrası dotsenti*

Zamonaviy sharoitda har bir davlatning uzoq muddatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri aholi turmush darajasini yaxshilashdir. Aholi turmush farovonligi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi, va uning asosiy moddiy tarkibiy qismlaridan biri iqtisodiy faoliyat orqali olinadigan daromadlar hamda davlatning ijtimoiy siyosati doirasida taqdim etiladigan ijtimoiy yordamlar hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridagi o'tish davrida yuzaga kelgan murakkab vaziyatlarda daromadlarni boshqarish usullari qo'llanildi. Bunga daromadlarni indeksatsiya qilish, aholi turmush farovonligini yaxshilash maqsadida iste'mol savatchasidagi ijtimoiy ahamiyatga ega xarajatlarni qoplash, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega transfert to'lovlari orqali aholiga yordam berish choralarini ko'rish kiritiladi.

Aholi daromadlarini fiskal vositalar yordamida boshqarishning samarali va maqsadga muvofiqligini ta'minlashda kambag'allikning aniqlangan chegaralari muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, COVID-19 global pandemiyasi davrida jahon hamjamiyati oldida turgan asosiy muammo va hal qilinishi lozim bo'lgan global masalalardan biri kambag'allik va uni oldini olishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish hisoblanadi[1]. Bu har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, aholi turmush farovonligini yaxshilash davlat siyosatining asosiy maqsadi bo'lib, u aynan kambag'allikni bartaraf etishga qaratilgan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allikning asosiy omillari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

1. Iqtisodiy omillarga ishsizlik, ish o'rinlarining yetarli emasligi, past daromadlar va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish tizimiga oid muammolar kiritiladi.

2. Ijtimoiy omillarga nogironlik, ijtimoiy qatlamlardagi keksa yoshdagilar soni, aholining sog'lig'i, to'liq bo'lmagan oilalar (yolg'iz yoki yetim oilalar), oiladagi boquvchisiz a'zolarining ko'pligi, ma'lum etnik guruhning ozchilikni

tashkil etishi, hamda aholi orasida savodxonlik darajasining pastligi kabi holatlar kiradi.

3. Siyosiy omillarga ichki va tashqi harbiy mojoralar, davlatning parchalanishi, majburiy migratsiya jarayonlarini kiritish mumkin.

Yuqoridagi omillar ta'siri ostida yuzaga keladigan kambag'allik muammolari, aholi daromadlarini shakllantirish va milliy daromadni taqsimlash orqali daromadlar orasidagi tengsizlikni kamaytirish masalalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Kambag'allikning mutloq va nisbiy turlari mavjud. Mutloq kambag'allik insonlarning asosiy ehtiyojlarini, ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy kabi zarur narsalarni ta'minlashda qiyinchiliklarni bildiradi. Nisbiy kambag'allik esa, ma'lum bir jamiyatdagi odatiy turmush tarzida yashash uchun zarur vositalarning etishmasligi yoki yo'qligi bilan bog'liq.

Bu, oddiy ratsionga asoslangan ovqatlanish, yaxshi turmush sharoitlari, mehnat va dam olish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari kabi imkoniyatlarning yo'qligini anglatadi. Nisbiy kambag'allik darajasi esa, mamlakatdagi o'rtacha daromadga nisbatan belgilanadi.

Kambag'allikning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri quyidagi salbiy oqibatlar bilan ifodalanadi:

- iqtisodiy o'sishni sekinlashtirish;
- ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi;
- jinoyatchilik va qonun buzarliliklarning ortishi;
- migratsiya jarayonlarining intensivlashuvi;
- aholi turmush sharoitlarining yomonlashuvi.

Shuningdek, aholining demografik va milliy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri sifatida kambag'allik muhim ahamiyatga ega. Shu bois, kambag'allikni oldini olish va bartaraf etish masalalari har qanday rivojlangan mamlakatlarning ustuvor rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. Shuning uchun, BMTning 2000-2015 yillardagi Ming yillik deklaratsiyasida va 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarida kambag'allikni bartaraf etish masalalari asosiy o'rinda turadi[2].

Kambag'allikni kamaytirish uchun samarali iqtisodiy siyosat, ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash va ta'lim hamda bandlik imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat aholi farovonligini oshirishga, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, 2015 yildan jahon xo'jaligida yaratilgan milliy daromad 75191,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023 yilga kelib, 101612,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Natijada, ushbu davrda jahon xo'lagida yaratilgan milliy daromadning o'sish surati 2,4-3,6 % chegarasida tebrangan. Aholi jon boshiga milliy daromad ham, tahlil qilinayotgan davrda 10191,0 AQSH dollaridan 11361,9 AQSH dollariga ortgan. Lekin, 2020 yildagi COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq global iqtisodiy turg'unlik natijasida jahon xo'jaligi YaIMda 85246,1 mlrd AQSH dollari yoki yillik 3,3 %ga pasayish

kuzatilgan. Bu, o'z navbatida, global miqyosdagi aholi jon boshiga milliy daromad ko'rsatkichining pasayishiga olib kelgan.

1-jadval

Global masshtabda milliy daromad va uning o'sishi[3]

Yillar	Milliy daromad, mlrd AQSH doll.	Aholi jon boshiga milliy daromad, AQSH doll.	Milliy daromad, mlrd AQSH doll.	Milliy daromadning o'sishi, %
	Joriy narxlarda		1970 yildagi narxlarda	doimiy
2015	75 191,8	10 191,0	14 202,1	3,0
2016	76 207,7	10 212,3	14 544,4	2,4
2017	81 274,4	10 770,8	15 066,1	3,6
2018	86 263,2	11 306,6	15 520,7	3,0
2019	87 616,2	11 361,8	15 905,9	2,5
2020	85 246,1	10 939,0	15 373,3	-3,3
2021	96 513,0	12 122,0	16 500,0	7,3
2022	101 612,0	12 654,0	17 200,0	4,2
2023	106 000,0	13 100,0	17 800,0	3,5

Demak, xulosa qilish mumkinki, global miqyosda iqtisodiy faollik ko'lamining notekis taqsimlanishi aholi daromadlarining notekis taqsimlanishiga va natijada, kambag'allik yoki qashshoqlikning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Daromadlarning ushbu taqsimoti, avvalo, mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga, tabiiy demografik, etnik-siyosiy va ijtimoiy omillarga bog'liq bo'ladi. Qolaversa, milliy daromadni birlamchi va qayta taqsimlash tizimini o'zida mujassamlashtirgan moliya tizimi hamda uning mexanizmlariga bog'liqligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNDP (United Nations Development Programme). 2022. Human Development Report 2021-22: Uncertain Times, Unsettled Lives: Shaping our Future in a Transforming World. New York. <https://hgr.undp.org/content/human-development-report-2021-22>.

2. Узбекская модел сокращения бедности и опыт Китая // Институт стратегических и ежрегиональных исследований При Президент Республики Узбекистан <https://isrs.uz/ru/maqolalar/uzbekskaa-model-okrasenia-bednosti-i-opyt-kitaa>

3. <https://svspb.net/danmark/dolgi-domohozjajstv.php>